

**ZAMONAVIY MUNOSABATLARDA MA'NAVIY ZARARNI
KOMPENSATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

Rasulbekova Risolat

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi xodimi

**ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ КОМПЕНСАЦИИ МОРАЛЬНОГО ВРЕДА
В СОВРЕМЕННЫХ ОТНОШЕНИЯХ**

Рисолат Расулбекова

Сотрудник управления Юридического образования и судебной экспертизы
Министерства юстиции Республики Узбекистан

**LEGAL FOUNDATIONS FOR COMPENSATION OF MORAL DAMAGE
IN MODERN RELATIONS**

Risolat Rasulbekova

Employee of the Department of Legal Education and Forensic Expertise
Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

KIRISH

Globalashuv sharoitida ko'pchilik davlatlar o'z iqtisodiyoti va ijtimoiy soha tarmoqlarini raqamli boshqaruvga o'tkazish jarayonini jadallik bilan davom ettirmoqda. Insonlar va kompaniyalar, qolaversa davlat organlari va fuqarolar, yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy aloqalar ham raqamli texnologiyadan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bu esa ayni paytda raqamli reallikning huquqiy asoslarini belgilash, raqamli munosabat ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlarini huquqiy himoyasini belgilash hamda mazkur reallik sharoitida kelib chiqqan ma'naviy zararni kompensatsiyalashning samarali mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi ham aynan iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli

rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Strategiya O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.¹

TADQIQOT NATIJALARI

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz huquqiy amaliyotida deyarli barcha huquqiy-munosabatlarning elektron shaklda amalga oshirilishi uchun bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bular qatoriga O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida", "Elektron hukumat to'g'risida", Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" hamda "Elektron raqamli izmo to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi hamda boshqa shu kabi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari kiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son;

Internet tarmog‘i va unda yuzaga keladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinishi murakkab xususiyat kasb etib, ularni qonunchilik darajasida hal qilish uchun normativ-huquqiy baza rivojlanishi taqozo qiladi. Bunda quyidagi holatlar hisobga olinishi kerak, deb ta’kidlaydi, yuridik fanlari doktori, Professor Islambek Rustambekov:

birinchidan, Internet tarmog‘i tushunchasiga huquqiy nuqtai nazardan aniq ta’rif berish lozim;

ikkinchidan, Internet tarmog‘ining fuqarolik huquqi, jumladan, mutlaq huquq, va majburiyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar yuzaga keladigan makon sifatidagi asosiy xususiyatlarini aniqlashtirish darkor;

uchinchidan, Internet tarmog‘i globalligidan kelib chiqqan holda undagi munosabatlarni kollizion-huquqiy tartibga solish masalasi barcha munosabatlarni tartibga solishda e’tiborga olinishi kerak;

to‘rtinchidan, Internet tarmog‘ini boshqarish mexanizmini tizimli tadqiq etish lozim, chunki mazkur mexanizm huquqiy jihatdan atroflicha o‘rganib chiqilmagan.²

Darhaqiqat, raqamli munosabatlarda internet jahon axborot tarmog‘i sifatida foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ma’lumot almashinuvini tashkil etadi. Ushbu axborot almashinuvlari oqibatida foydalanuvchilar fuqarolik-huquqiy munosabatlar, ya’ni, shartnomaviy, majburiyat-huquqiy yoxud delikt majburiyatlarining ishtirokchilariga aylanishadi. Bu esa o‘z-o‘zidan ishtirokchilarning virtual olamdagi huquq va majburiyatlari belgilashni, ularni

² Rustambekov I.R. Internet tarmog‘ida fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari. Monografiya. – Toshkent: TDYU, 2017. -36-bet.

himoya qilishni tartibga solishga qaratilgan huquqiy tizimni yaratish zaruriyatini tug'diradi.

Raqamli munosabatlarda ma'naviy azoblar yetkazish turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Onlayn tuhmat (*Online Defamation*): Internetda yolg'on ma'lumotlar tarqatilgan holatlar an'anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda tezroq va kengroq obro'ga putur yetkazishi mumkin.

- Kiberbulling va ta'qib (*Cyberbullying and Harassment*): Internetning anonimligi tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin, bu odatda yuzma-yuz muloqotda cheklanadi.

- Maxfiylik buzilishi (*Privacy Violations*): Shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz almashish yoki sizib chiqishi jiddiy qayg'u va xavotirga olib kelishi mumkin.³

Hayotiy misollardan biri, Fransiyadagi muhim voqea, blogger internetda mashhur bir restoran haqida e'lon qilingan tuhmatli sharh uchun jarimaga tortilgan hamda oqibatida restoran egasiga ma'naviy zarar yetkazgan. Ushbu ish sudlar zarar darajasini va raqamli muhitda tegishli kompensatsiyani aniqlashda duch keladigan qiyinchiliklarni ta'kidlaydi.

Xuddi shunday, raqamli munosabatlar rivojida shaxslarga ma'naviy zarar yetkazilishi aktual masalalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki, hozirgi kunda hayotimizni internet, ijtimoiy tarmoqlar, boshqa axborot almashinuvi vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, aqlli texnikalar, kompyuter, smartfon, video kuzatuv jihozlari takomillashuvi o'z navbatida shaxslarning shaxsiy nomulkiy huquqlariga yangi tahdidlarni yarata boshladi. Misol uchun, smartfonlar orqali

³"Digital Personhood: Legal Responses to the Datafication of Identity," Harvard Law Review, 2022.



rasm va videotasvirga olish, uni qayta ishlash hamda boshqa vositalarga uzatish, ovozlarni yozib olish va tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish kabi bie necha funksiyalar amalga oshiriladi. Shuningdek, kompyuter yoki boshqa qurilmalar orqali jahon bo'ylab kontragentlar bilan shartnomalar tuzish, muayyan elektron platformalarga shaxsiy ma'lumotlarni yuklash, electron imzolarni qo'yish kabi harakatlar amalga oshiriladi. bunday harakatlarning ba'zilari ishonchli va kiberhujumlardan himoya qilinganligiga qaramay, ba'zilari hali ham foydalanuvchilarga turli zararlarni yetkazmoqda.

Z.V.Veshkursevaning fikriga ko'ra, internet tarmog'idagi ma'naviy zararni kompensatsiyalashning ikkita asosiy muammosini ajratish mumkin, bular: zarar yetkazuvchini aniqlash muammosi va dalillarni qayd etish muammosi.⁴ Shuningdek, mazkur muammolarni hal qilish jabrlanuvchilarga qimmatga tushishi, moliyaviy xarajatlarni talab qilishi, eng muhimi uzoq vaqtning sarflanishi bois, ko'pchilik holatlarda ma'naviy zararni qoplash talabi bilan chiqishlari qiyinlashadi, deydi huquqshunos olim.

Ya'na bir amaliyotchi-huquqshunosning ta'kidlashicha, hozirda internet tarmog'ida tarqalayotgan fuqaroning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini kamsitadigan ma'lumotlarning tarqalishi yoki boshqa ma'naviy zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning sodir etilayotganligi holatlari ko'plab uchrab turibdi.⁵ Biroq shaxs elektron pochta ochganida, ijtimoiy tarmoqlarda profil yoki akkuant tuzganda ulardan foydalanish tartibini belgilovchi kelishuv taqdim etiladi.

⁴ Вешкурцева З.В. Компенсация морального вреда при нарушении личных неимущественных прав и при посягательстве на нематериальные блага: автореф. дис. канд. юрид. наук. – М.: 2018. – 21-22 с.

⁵ Маънавий зиён компенсацияси. Монография. Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович. – Т.: “Lesson Press” нашриёти, 2023 й. – 159-б.

Unga rozi bo'lsangizgina foydalanishga ruxsat beriladi. Bunday kelishuvlarning deyarli barchasida foydalanuvchiga sha'n, qadr-qimmatni kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatmaslik majburiyati belgilangan. Xatto, "Mail.Ru"⁶ kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan foydalanuvchilar uchun kelushuv matnining

5.2.2.-bandida, har qanday zarar yetkazuvchi, shu jumladan ma'naviy zarar yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatish, kiritish taqiqlanishi ko'rsatilgan.

Internetda yetkazilgan ma'naviy zararni kompensatsiya qilish buzilgan shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishning bir usuli sifatida, avvalo, qonuniy javobgarlikka tortiladigan va jabrlanuvchiga yetkazilgan ma'naviy zarar va moddiy zararni qoplashi shart bo'lgan shaxslar doirasini aniqlashning qiyinligi, ikkinchidan, dalillarni qayd etish (to'plash, taqdim etish) muammosi, ularning maqbulligi va ishonchligi borasida sud amaliyotida dolzarblikni yuzaga keltiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, internetda anonim bo'lgan holda foydalana olish imkoniyati zarar yetkazuvchi ma'lumotlarning muallifini, manba va joylashtirgan shaxsning haqiqiy ismlarini yashirish imkonini beradi. Internet tarmog'ida faoliyat yurituvchilar sanoqsizligi, subyektlarning aniq belgilangan ro'yxati va ularning huquqiy holati mavhumligi jabrlanuvchiga isbotlash vositalarini yig'ishga, sudga esa ularni qonunda belgilangan shaklda baholashga to'siq bo'ladi.

Aslida, muammo Internetda va boshqa elektron vositalar hamda axborot va aloqa manbalarida nomoddiy ne'matlar va shaxsiy nomulkiy huquqlarning buzilishi haqiqatda boshqalar uchun xavfning kuchayishi xususiyatiga ega bo'la

⁶ Пользовательское соглашение сервисов Mail.ru <https://help.mail.ru/legal/terms/common/ua>

boshlaganligidan boshlanadi. Internet resurslari, mohiyatan, “xavfning kuchayish manbai” sifatida tavsiflanishi mumkin, chunki Internetda sodir etilgan huquqbuzarliklar bir zumda cheksiz ko‘p sonli foydalanuvchilarga tarqaladi va bunday qoidabuzarliklar jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan oqibatlarining oldindan aytib bo‘lmasligi va ushbu manbada sodir bo‘layotgan jarayonlar ustidan dastlabki distribyutor tomonidan nazoratning yo‘qligi bilan tavsiflanadi.

Bu vaziyatda internetda yuz bergan zarar yetkazuvchi ma’lumotlar va ularni tarqatgan shaxsni aniqlash vazifasi birlamchi omil sanaladi. Albatta, ma’naviy zarar yetkazuvchi ma’lumotlarning tarqatilganligi faktini turli ijtimoiy tarmoqlar orqali aniqlash va bilib olish mumkin, lekin uni tarqatuvchisi kim ekanligini aniqlash muammosini hal qilish bir qadar mushkul muammodir. Bu o‘rinda zarar yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatilgan sayt yoki ijtimoiy tarmoq egasidan bu ma’lumotni aniqlashtirish o‘ta murakkab jarayondir.

Shu sababli, raqamli munosabatlarda yuzaga keladigan ma’naviy zararni isbotlash vositalari murakkabligi nuqtai nazaridan qonunchilik amaliyotida muayyan o‘zgarishlar amalga oshirilishi, fuqarolarning hamda boshqa fuqarolik huquqi subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan usullarni takomillashtirish zarurati mavjud.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.1. Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II: Обязательственное право. / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип.– М.: Статут, 2011.
- 1.2. Oqyulov O. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash asoslari // Qonun himoyasida. 1999. - №9.
- 1.3. A company’s right to damages for non-pecuniary loss. Vanessa Wilcox. University Printing House, Cambridge CB2 8BS, United Kingdom. Vanessa Wilcox 2016.
- 1.4. Эрделевский А.М. Компенсация морального вреда: анализ и комментарий законодательства и судебной практики. – 3-е изд., испр. И доп. – М.: Волтерс Клувер, 2004.
- 1.5. Rustambekov I.R. Internet tarmog‘ida fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari. Monografiya. – Toshkent: TDYU. 2017.
- 1.6. Ma’naviy ziyon kompensatsiyasi. Monografiya. Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich. – T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2023-y.
- 1.7. “Digital Personhood: Legal Responses to the Datafication of Identity”. Harvard Law Review, 2022.
- 1.8. Проблемы доказывания морального вреда в интернете. А.Е. Васильев, Б.И. Габидуллин. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 6-2 (57), 2021.
- 1.9. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
- 1.10. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Ma’naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 7-sonli qarori.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 1999-yil 26-martdagi 137-son qarori.